

ZAMONAVIY **O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI,** **ADABIYOTSHUNOSLIGI** **VA TIL TA’LIMINING** **DOLZARB MUAMMOLARI**

mavzusidagi respublika
ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI,**

Tilshunos olim **Abdullayev Jumanazar Xudoyberdiyevichning** 70 yilligiga
bag‘ishlangan

**“ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI,
ADABIYOTSHUNOSLIGI VA TIL TA’LIMINING DOLZARB
MUAMMOLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 05-may

GULISTON – 2026

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va til ta’limining dolzarb muammolari [Matn]: to‘plam. – Guliston, 2026. – 476 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida **Guliston davlat universitetida 2026-yil 05-may kuni** Tilshunos olim **Abdullayev Jumanazar Xudoyberdiyevichning** 70 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan **“ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI, ADABIYOTSHUNOSLIGI VA TIL TA’LIMINING DOLZARB MUAMMOLARI”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Anjuman zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb ilmiy mavzulari va amaliy masalalariga doir uslubiy ishlanmalarni aks ettirishga qaratilgan.

Mas’ul muharrirlar:

f.f.f.d. (PhD), dotsent A.Axrоров, f.f.d., professor F.Sharipov, f.f.d., professor I.Ermatov, f.f.n., dotsent J.Abdullayev, f.f.n., dotsent I.Pardayeva, f.f.f.d. (PhD), dotsent. M.Latipov

Tahrir hay’ati:

M.T.Xodjiyev (anjuman raisi), D.D.Eshmurodov (rais o‘rinbosari), F.G.Sharipov, K.K.Kudratov, A.Axrоров (anjuman kotibi), A.Mamatqulov, Sh.Ro‘ziqulov, Z.To‘ychiyeva, S.Mamaraximov

To‘plamga keltirilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar hamda fikr-mulohazalar, takliflarning to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar

ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI

Obidaxon Fayzullayeva

XI-XV ASRLAR MUMTOZ SHE'RIYATDA TURKUMLILIK MASALASI.....250

Олимжон Абдуллоев

БИР ШЕЪР ТАҲЛИЛИ.....254

Gulchehra Qo'lyiyeva

“ULUG‘ SALTANAT” TERTALOGIYASIDA XORAZM MALIKASINING
IZTIROBLARI TASVIRI.....257

Dilnoza To'rayeva

BADIIY IJOD JARAYONI VA YOZUVCHI PSIXOBIOGRAFIYASI.....261

Ijobat Saymuratova

ADABIYOTSHUNOSLIKDA OBRAZ VA OBRAZLILIK MASALASI.....266

Malika Misliddinova, Rayxona Suyunova

TASAVVUF OLAMINING TIMSOLLARI.....269

Oybek Normurodov

KO'NGIL ODAMINING QALB SADOLARI.....274

Sardor Jo'raqulov

O'ZBEK ADABIYOTIDA QIT'A JANRI SHAKLLANISHINING NAZARIY
ASOSLARI.....279

Nargiza Normurodova

ONA TILIMIZ ILDIZLARINING SHE'RIYATIMIZDA AKS ETISHI.....284

Sherali Boybo'tayev

SA'DULLA HAKIM PUBLITSISTIKASINING MAVZU VA JANRLARI
TASNIFI.....288

Gulrux Doniyorova

ABDULLA QAHHOR HIKOYANAVISLIGI: BADIIY TAFAKKUR, REALIZM
POETIKASI VA XARAKTER YARATISH MAHORATI.....291

Madina G'ulomjonova

“OLMA “OL”, “MA” EMASMI?”.....296

Maftuna Hamdullayeva

JUMANAZAR ABDULLAYEVNING “ONAJONIMGA” SHE'RIGA BIR
NAZAR.....302

*Ko 'zin ochdi olis ohang – kamonlandi qo 'bizim,
Turing, ko 'kturk bolalari – qorluq, qipchoq, o 'g 'uzim!*

Umuman, olganda Jumanazar Abdullayev lirikasini o'qiganda kishi shoirni havaskor ijdkor emas, balki hayotni falsafiy teran nigoh bilan mushohada qilgan, uning tub mohiyatiga yetgan, umrning shirin-talxini tatib ko'rgan, vatanni sevadigan, milliy tarixi bilan g'ururlanadigan insonlarning kechinmalari ekanligini anglaydi. O'ylaymizki, shoir ijodi bundan keyin ham o'sishda davom etadi. Xalqimiz o'z ko'nglidagi hislarini go'zal tarzda qayta J.Abdullayev tilidan tinglaydi. Bu borada shoir ijodiga ulkan parvoz tilaymiz.

O'ZBEK ADABIYOTIDA QIT'A JANRI SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

Jo'raqulov Sardor Mashrab o'g'li,

Guliston davlat universiteti,

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası o'qituvchisi

E-pochta: sardorjoraqulov257@gmail.com

ORCID:0009-0001-7542-0582

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotidagi mumtoz shakllardan bo'lgan qit'a janri shakllanishining nazariy asoslari va genezisi masalasi o'rganilgan. Qit'a janrining shakllanishi haqidagi nazariy manbalar sifatida Shayx Ahmad Xudoydod Taroziyning "Funun ul-balog'a" asariga, Atoullloh Husayniyning "Badoe' us-sanoe'" asariga hamda Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" nomli tadqiqoti kabilarga murojaat qilingan.

Kalit so'zlar: qit'a janri, nazariy manbalar, kinoyalar, nozik va murakkab mubolag'a, imo-ishoralar, obyekt, badiiy-estetik xususiyat, tahlil va h.k.

Abstract. This article studies the theoretical foundations and genesis of the formation of the qut'a genre, one of the classical forms in Uzbek literature. As theoretical sources for the formation of the qut'a genre, Sheikh Ahmad Khudoydad Tarazi's work "Funun ul-baloga", Ataulloh Husayni's work "Badoe' us-sanoe'" and Abdurauf Fitrat's study "Rules of Literature" are referred to.

Keywords: continental genre, theoretical sources, irony, subtle and complex hyperbole, gestures, object, artistic-aesthetic feature, analysis, etc.

Mumtoz adabiyotshunoslikdan ma'lumki, qit'a boshqa janrlarga nisbatan erkin, ya'ni g'azal, ruboiy yoki tuyuq kabi qat'iy qonuniyatlarga ega bo'lmagan, mavzu doirasi ham ularga nisbatan anchagina keng bo'lgan janr sanaladi. Janrdagi mazmun va shakl erkinligi uning imkoniyatlarining yanada kengayishiga xizmat qiladi.

“Qit’a (arab. – parcha, bo‘lak, qism, bir kesim) – Sharq mumtoz she’riyatida keng tarqalgan, ikki baytdan bir necha o‘n baytgacha (ayrim manbalarda 19 baytgacha deb belgilangan) hajmdagi, juft misralari o‘zaro qofiyalanib, toq misralari ochiq qoluvchi (b-a, d-a, f-a tarzida) she’r shakli; lirik janr” [Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. 2010: 382]. Qit’aning she’riy shakl sifatida qasida va g‘azaldan oldin paydo bo‘lganligi haqidagi fikr “Adabiyotshunoslik lug‘ati” mualliflari tomonidan tasdiqlanadi va bu janrning boshqa nazariy manbalarda keltirilganidek, g‘azal va qasidadan olingan parchalar emas, balki avvaldan shakllangan mustaqil janr ekanligiga urg‘u beriladi: “Ayrim manbalarda bildiriluvchi qit’a mustaqil asar sifatida yaratilishi ham, qasida va g‘azal ichidan bir necha bayt ajratib olish natijasida paydo bo‘lishi ham mumkin, qabilidagi fikrlarga qo‘shilib bo‘lmaydi. Bu holda qit’a so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari farqlanmagan bo‘ladi. Holbuki, istilohiy ma’noda qit’a muayyan shakl xususiyatiga ega bo‘lgan mustaqil she’riy janrni anglatadi, ikkinchi tomondan muayyan janrga mansub asar (g‘azal yoki qasidadan ajratib olingan bir necha bayt (hatto mazmunan g‘oyat boy bo‘lsa-da), yangi va mustaqil asar bo‘lib qolmaydi, parcha parchaligicha qoladi” [Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. 2010: 383]. Darhaqiqat, qit’ani g‘azal tarkibidan ajratib olingan baytlar deyish uning mazmun-mohiyatiga zid, bunday qarashlar mazkur atamaning lug‘aviy ma’nosidagi “bir kesim” ma’nosidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin.

Olimlar o‘z qarashlarini asoslash uchun qit’a janri genezisiga murojaat qilishni ma’qul ko‘rishadi. “Nasriy asarlardagi parchalar ayni shunday (qofiyalanishi birmuncha erkin, hajmi kichik, mazmun va vazn jihatdan cheklanmagan) shakl taqdim etuvchi imkonlarni ko‘rsatganki, shu asosda mustaqil qit’a janri paydo bo‘lgan” [Шайх Аҳмад Тарозий. 1996: 32]. Qit’a xossalaridan ushbu ko‘rsatib o‘tilgan jihatlar mumtoz adabiyotimizning aksar ijodkorlarini jalb etganligi ularning ko‘pchiligi ijodida ushbu janr namunalari uchrashidan ham ayon bo‘ladi.

Professor Ibrohim Haqqulov: “Qit’a mazmun-mohiyati bilan g‘azaldan keskin farqlanadi. Bu ikki janr orasidagi g‘oyaviy-badiiy o‘ziga xoslik xuddi mana shu nuqtada yanada yorqin, yanada aniqroq namoyon bo‘ladi” [Ibrohim Haqqulov.1992: 18], deganlarida g‘azalning o‘z ma’no va mazmuniga ko‘ra – oshiqona so‘z, ya’ni ayollarga dil izhorlari bayoni uchun shakllantirilganligi, qit’a esa har qanday mavzuda yaratilishi mumkin ekanligini nazarda tutgan.

“Adabiy turlar va janrlar” lirikaga bag‘ishlangan ikkinchi jildida qit’aga quyidagicha ta’rif berilgan: “Bir baytlidan boshlanuvchi va davomi chegarasiz bo‘lgan, monorifmali juft misralarigina qofiyalanuvchi (qit’a “parcha” deyilganidan, ba’zan mustaqil asarda aa, ba, va ham qofiyalanuvchi), aruzda, maxsus yoziluvchi goho qasida yo g‘azaldan parcha tariqasida keltiriluvchi operativ janr; ba’zan nasriy, falsafiy, epik, didaktik, adabiy-tanqidiy, ilmiy asarlarda; devonlarning debochalarida, risolalarda ham keltiriladi. Yaqin va O‘rta Sharqda nom chiqargan shakl” [Адабий турлар ва жанрлар. 1992: 192] Ko‘rinadiki, bu ta’rifda qit’aning eng kichik hajmi to‘rt misra, qolgan hajmi chegarasiz ekanligi, ba’zan g‘azal tarzida ham qofiyalanishi mumkinligi, aruz vaznida

yozilishi, qasida yoki g‘azalning parchasi tarzida yoki boshqa janrdagi yirik asarlar tarkibida ham kelishi mumkinligi, Sharqda mashhur ekanligi aytib o‘tish orqali ushbu janrning xos xususiyatlariga yana bir bor to‘xtalinadi.

Kitobda qit‘aning folklordagi ildizlari kuchli va uzun ekanligi haqidagi fikr ham keltirilgan, lekin ushbu fikr davom ettirilmagan. XX asrda qit‘a shaklida yoziladigan to‘rtliklar ko‘payganligi ham eslatib o‘tilgan.

“Qit‘a g‘azal va qasidadan oldin kelib chiqdi, u “Devonu lug‘otit turk”da ham bor, dastlabki forsiy qit‘alarni fors-tojik klassigi Rudakiy (860-941) yozgan; ammo fors tilida eng ko‘p qit‘a yozgan shoir ibn Yamin Faryumodiydir. Bizda dastlab Yassaviy ishlatgan” kabi ma‘lumotlar boshqa manbalardagi shu mazmundagi ma‘lumotlar bilan deyarli bir xil. Xususan, Y.E.Bertels, A.Mirzoyev va N.Hotamov, B.Sarimsoqovlarning bergan ma‘lumotlari ham shu mazmunda. Faqat qit‘aning kelib chiqishi xalq og‘zaki ijodiga borib taqalishi va yozma shakldagi qit‘alar o‘zbek adabiyotida “Devonu lug‘otit turk” asari tarkibida ham bor ekanligi haqidagi ma‘lumotlar boshqa manbalarda deyarli uchramaydi.

S.Jo‘rayeva qit‘a janri bo‘yicha yuzaga kelgan chalkashliklardan yana biri uning qofiyalanish tartibi bo‘yicha bildirilgan fikrlardagi har xilliklarda ko‘rinishini ta’kidlaydi. Qit‘a uchun yagona janr mezonini uning qofiyalanish tartibi ekanligi, xuddi shu belgisi bilan u barcha janrlardan alohidalik kasb etishi, bu xususiyat faqat qit‘alargagina xos ekanligi yana bir bor qayd etilib, ba’zi manbalarda qit‘aning qofiyalanishi a-a, b-b, d-d tarzda ham qayd etilgan o‘rinlar uchrashi, qit‘a va masnaviy o‘rtasidagi farq yo‘qolishiga, masnaviy shaklida qofiyalanuvchi she‘rlar ham qit‘a sifatida tahlil etilishiga sabab bo‘layotganligi aytib o‘tiladi. “Chunonchi, M.Ibrohimov va G‘.Mahmudov, O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyoviddinov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qit‘aning qofiyalanishi a-a, b-b, d-d tarzida ham bo‘lishi mumkinligi qayd etildi. Ammo bunday qofiyalanish bizga ma‘lumki, masnaviylarga xosdir [Иброҳимов М. 1983: 184]. Tadqiqotchi asli masnaviy bo‘lgan, lekin ayrim tadqiqotlarda qit‘a shaklida talqin etilgan she‘rlarning asli qaysi janrda ekanligini keltirish uchun adabiyotshunos Y.Is‘hoqovning 80-yillardagi tadqiqotidagi ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi: “Unda xuddi shu 41 raqamli – qit‘a aslida masnaviy deb aytilgan. “G‘aroyib-us-sig‘ar”dagi 41, “Badoe’-ul-vasat”dagi 3, 18, 52 va “Favoyid ul-kibar”dagi 42 va 44 raqamli she‘rlar ham qit‘a emas, balki masnaviy hisoblanadi”. Mana shu hisobda “Xazoyin ul-maoniy” devonidagi 210 ta qit‘adan 6 tasi miniatyur masnaviylar bo‘lib chiqadi va qit‘alar soni 204 ta ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Demak, a-a, b-b, d-d, tarzidagi qofiyalanish tartibi masnaviyga, b-a, d-a, f-a ... yoki b-a-d-a tarzida juft misralarning o‘zaro qofiyadoshligi asosan qit‘aga xosdir”. Ko‘rinadiki, S.Jo‘rayeva qit‘aning asosiy xossasi bo‘lgan uning qofiyalanish tartibidan kelib chiqib, Yoqubjon Is‘hoqovning fikrlariga qo‘shiladi va “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibida 210 ta emas, balki 204 ta qit‘a borligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotchi o‘zaro ohangdosh baytlardan tashkil topgan kichik she‘rlarni qit‘a deb atash adabiyotshunosligimizda Y.Is‘hoqov bildirgan tanqidiy fikrlardan so‘ng ham

davom etganligini, xususan, G'.Mahmudov o'z tadqiqotida Avaz O'tarning bir qator masnaviylari hajviy qit'alar namunasi sifatida tahlil etilganligini qayd etib o'tadi. "R.Orzibekovning tadqiqotlarida esa bu xildagi she'rlar "masnaviy-she'rlar" deb to'g'ri ta'kidlandi. Y.Is'hoqov va R.Orzibekov tomonidan qayd etilgan mazkur fikrlar adabiyotshunosligimizda qit'a va masnaviyni bir-biridan farqlashda muhim qimmatli ma'lumot vazifasini o'tadi" [Исхоков Ё. 1983: 67], degan xulosa fikr mazkur tadqiqotning turfa qarashlar va tadqiqotchining o'z ilmiy pozitsiyasi oqali shakllantirilganligini dalolatlaydi.

Adabiyotshunos olim M.Mamatqulovning qarashlari bo'yicha qit'a janrining ildizlari XIV asarga borib taqaladi. M.Mamatqulov mazkur janrning dastlabki namunalari Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarida qayd etilganligini ta'kidlaydi. Xususan, olimning ushbu janrdagi ilk namunalari haqidagi qarashlari shunday: "Qit'alarning turli mavzularda yozilishi, hajm jihatidan chegaralanmasligi janrga keng imkoniyatlar yaratadi. Uning namunalari o'zbek adabiyotida XIV asrdan boshlab kuzatiladi. Xorazmiyning "Muhabbatnoma" dostoni tarkibidagi qit'a 10 misradan iborat bo'lib, asarning so'nggi nomasidan keyingi yakuniy qismida uchraydi" [Rahmonov N. 2017: 552]. Albatta, bu fikrlarda jon bor, chunki o'zbek adabiyoti tarixida Oltin O'rda va temuriylar davri manbalari muhim ahamiyat kasb etadi, bu davrda bir qancha janrlar paydo bo'lganligi, taraqqiy etganligi bizga ma'lum.

Aksar manbalarda esa ushbu janrning realistik xarakterdagi lirik janrlarga mansub ekanligi, undagi fikrning qisqaligi, aforistik tabiati va ifodali mazmunlilik qit'aning o'ziga xos fazilatlar bo'lgani uchun ularni yaratish tili, tasvir vositalari va badiiy texnikasi ham o'ziga xos ekanligi ta'kidlanadi. O'zbek she'riyatida Xorazmiy, Gadoiy, Lutfiy ijodida oddiy qit'a va omonim qofiyali (tajnis) qit'alar mavjud bo'lganligi ta'kidlanadi.

"Adabiy turlar va janrlar" kitobida: "Janr rivojida Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Gadoiy, Yusuf Amiriy, Hojalarning mavqei kattadir. Qit'ada romantizm va lirik qahramon hamda realistik an'analar uzviy tarzda o'zgarib bordi. XIX asr qit'asida hayot; romantizmning badiiy arsenali va realizm an'analari birikib ham yashadi. (Roqim, Ogahiy, Munis, Avaz, Ochildimurod Miriy, Tabibiy qit'alari). Realistik qit'a badiiy sistemasiga romantizm an'alarining ta'siri sezilarli bo'lib turadi Realizm va qit'a janridagi g'oyaviy-badiiy o'zgarishlar esa bu janrni yangi bosqichga ko'tardi. Vosit Sa'dulla qit'alaridagi traditsiya va novatorlik yangi, yaxshi natijalarni berdi" kabi qit'a shakllanishi tarixiga va qit'a ijodkorlari haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

Ushbu manbada qit'aning keyingi davrlarda rivojlanishi va janr belgilanishidagi ayrim chalkashliklarga ham to'xtalib o'tilgan: "Qit'a nazariyasi va metodlar ham qit'a xillari aloqasi katta tarixiy rivojlanishni kechirdi. Turob To'laning "Qo'nalg'a", "Xayol", va boshqa she'rlari "Qit'alar" degan sarlavha ostida keltirilgan, vaholanki ular qit'a emas, sababi bu she'rlarning barmoq sistemasida yozilganligidagina emas, balki bir necha to'rtliklardan tashkil topganida va har bir she'rning a-b-a-b qofiyalanishida hamdir. Bu she'rlar shoir asarlarining uchinchi jildida o'rin olgan (1980) va bu hol

G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotining masalaga beparvo qaraganiligi oqibatidir" [Адабий турлар ва жанрлар. 1992: 92]. Ya'ni ko'rsatilishicha, qit'aning janr xususiyatlariga to'g'ri kelmaydigan ijod namunalariga bunday nisbat berilishi chalkashliklarni keltirib chiqargan.

Mualliflar barmoq vaznida ham qit'a shaklida yozilgan she'rlar janr sohasida misra soni va strofik tuzilishi jihatidan tasnif etilganligini to'rtlik yoki musaddas, musamman shakllari orqali qayd etib o'tishadi va misol tariqasida Po'lat Mo'minning "Gul va piyoz" nomli siklini keltirib o'tishgan.

Adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedov ham Alisher Navoiy ijodidagi qit'alar miqdori va baytlar tasnifini o'ziga xos tarzda amalga oshirgan: "Mazkur janr rivojiga Alisher Navoiy kuchli ta'sir ko'rsatdi. U o'z davrining muhim ijtimoiy-axloqiy muammolarini "Xazoyin ul maoniy" asaridan o'rin olgan 210 qit'asida mohirona aks ettirdi" [Хожиахмедов А. 2008. 172]. Olim ushbu qit'alarning 168 tasi ikki baytli, 26 tasi uch baytli, 7 tasi to'rt baytli, 4 tasi besh baytli, 1 ta olti baytli, 1 ta yetti baytli, 2 ta to'qqiz baytli, 1 ta o'n bir baytli hajmda shakllantirilganligi, ya'ni aksar qit'alar ikki baytli hajmda yozilganligini ta'kidlab o'tadi. Adabiyotshunos tomonidan qit'a namunalari Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Avaz O'tarlarda bor ekanligi ta'kidlanadi. Ya'ni janr rivojida nafaqat Navoiyning, balki keyingi davr ijodkorlarining ham o'rni alohida ekan.

Umuman, faslga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qit'a janri tuzilishiga ko'ra, gazalga yaqin turadi, lekin qit'ada matla' qofiyalanmaydi (a-b, d-b, f-b...), hajmi ham qat'iy emas, mazmun talabiga ko'ra, ikki bayt va undan ortiq bo'lishi mumkin. Har bir qit'a yaxlit asar bo'lib, biron mavzuga bag'ishlanadi. Unda ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy axloqiy-ta'limiy va boshqa mazmundagi fikrlar jiddiy yoki hajv yo'li bilan ijodkor hayotining turli holatlari ifodasi sifatida bayon qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroyeva O. Mumtoz qofiya nazariyasi asoslari. – T.: Bookmany print, 2022. – B. 27-28.
2. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. – B. 548-552.
3. Абдуғафуров А. Шоир қитъалари. // Ўзбекистон маданияти. 1968 йил, 20 август сони. – Б. 3.
4. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 193.
5. Афокова Н. XX аср ўзбек адабиётида рубоий ва қитъа. – Т.: Фан, 2005. – Б. 16.
6. Джураева С.Р. XX аср ўзбек адабиётшунослигида мумтоз лирик жанрлар тадқиқи (рубоий, туюқ, қитъа мисолида): филоло.фан.б.фалс.док...дисс..автореф. – Самарқанд, 2020. – Б. 15.

7. Иброҳимов М. Кичик поэтик жанрлар ва уларнинг услуб хусусиятлари//Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги.–Тошкент, Фан, 1983. –Б.184;
8. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент, Фан,1983. – Б. 67–68.
9. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 381-382.
10. Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. – Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 66.
11. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. –Б. 5.
12. Ҳаққулов И. Қитъа ва ғазал муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974 йил, 4-сон. – Б. 12 – 17.
13. Ҳусайний А. Бадоеъ ус-саноеъ. – Душанбе: Ирфон, 1974. – Б. 201.
14. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазиана, 1996. – Б. 32.
15. Jo‘raqulov, S. (2026, March). IJTIMOIIY, SIYOSIIY MA’NAVIY-AXLOQIIY MASALALARNING QIT’A JANRIDAGI IFODASI. In Conferences (Vol. 1, No. 01).

ONA TILIMIZ ILDIZLARINING SHE’RIYATIMIZDA AKS ETISHI

*Normurodova Nargiza Alijon qizi,
Guliston davlat universiteti,
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
E-pochta: nargizanormurodova1982@gmail.com
ORCID:0009-0005-8399-3101*

Annotatsiya. Ona tiliga bo‘lgan muhabbat tarannumini har bir shoir ijodida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada Guliston davlat universiteti tilshunos olimi, mehdariyo ustoz Jumanazar Abdullayevning ijodidagi ona tiliga cheksiz mehr-muhabbat ila bitilgan “Yasha, o‘zbek tilim, onajon tilim” she’ridagi qadim va buyuk tariximiz hamda milliy tilimiz ildizlari, qadri aks etgan she’riy satrlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, qadim tarix, ona tiliga muhabbat, ona tili tarixi, buyuk ajdodlar, tilshunos olimning tilga bo‘lgan munosabati, qarashlari

Abstract. We can see the hymn of love for our native language in the work of every poet. This article discusses the poetic lines that reflect our ancient and great history and the roots and value of our national language in the poem "Yasha, Uzbek tilim, onajon tilim" written with boundless love for our native language in the work of Gulistan State University linguist, Mehdariyo Ustad Jumanazar Abdullayev.